



BILINGVIZM VA UNING TURLARI, IJTIMOIIY TA'SIRI

Tolliyeva Sitora

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika intituti

Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bilingvizm haqida ma'lumotlar beriladi, turlari o'rganiladi va sotsilingvistika nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. dunyo miqyosida tobora keng tarqalib borayotgan bilingvizm (ikki tilda so'zlashuvchanlik) hodisasining mohiyatini ochib berishga bag'ishlangan. Tadqiqotda bilingvizmning nazariy asoslari, uning tilshunoslik va psixologiyadagi o'rni, shuningdek, jamiyat va shaxs taraqqiyotiga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, tabiiy (ko'chish natijasida yuzaga kelgan) va sun'iy (ta'lim jarayonida shakllangan) bilingvizm turlari hamda ularning o'ziga xos jihatlari bayon etilgan. Maqola o'quvchilarga bilingvizmning turli shakllari va uning jamiyatdagi o'rni haqida batafsil va tizimli ma'lumot berishni maqsad qilgan.*

Kalit so'zlar: *bilingvizm, ikki tillilik, tilshunoslik, tillar aro ta'sir, tabiiy bilingvizm, sun'iy bilingvizm.*

Аннотация: *В данной статье даны сведения о билингвизме, изучаются и анализируются его виды с точки зрения социолингвистики. посвящен раскрытию сущности феномена билингвизма (говорения на двух языках), который получает все большее распространение во всем мире. В исследовании анализируются теоретические основы билингвизма, его место в лингвистике и психологии, а также влияние на развитие общества и личности. Также описаны естественный (в результате миграции) и искусственный (сформировавшийся в процессе обучения) виды билингвизма и их специфические аспекты. Цель статьи – предоставить читателям подробную и систематизированную информацию о различных формах билингвизма и его роли в обществе.*

Ключевые слова: *двуязычие, двуязычие, лингвистика, языковое взаимодействие, естественное двуязычие, искусственное двуязычие.*

Abstract: *In this article, information about bilingualism is given, its types are studied and analyzed from the point of view of sociolinguistics. dedicated to revealing the essence of the phenomenon of bilingualism (speaking in two languages), which is becoming more and more widespread worldwide. The research analyzes the theoretical foundations of bilingualism, its place in linguistics and psychology, as well as its impact on society and individual development. Natural (as a result of migration) and artificial (formed during education) types of bilingualism and their specific aspects are also described. The article aims to provide readers with detailed and systematic information about different forms of bilingualism and its role in society.*





Key words: *bilingualism, bilingualism, linguistics, language interaction, natural bilingualism, artificial bilingualism*

XXI asr – Globallashuv jarayonlari kuchayib, migratsiya oqimlari ortib borayotgan bugungi kunda ko‘p tillilik va bilingvizm (ikki tillilik) hodisasi dunyo hamjamiyatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bilingvizm nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy hayotning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Turli tillarni bilish va ulardan samarali foydalanish imkoniyati dunyoqarashni kengaytiradi va madaniyatlararo muloqotni mustahkamlaydi. Shu bois bilingvizmning mohiyatini tushunish, uning shakllanish mexanizmlarini va turlarini o‘rganish tilshunoslik, psixologiya, pedagogika va sotsiologiya kabi ko‘plab fanlar uchun dolzarb tadqiqot obyekti hisoblanadi. Ikki tilda gaplashish qobiliyatining turli ko‘rinishlari, ularning shaxs va jamiyat hayotidagi o‘rni haqidagi ilmiy tushunchalarni tizimlashtirish ushbu mavzuni o‘rganishning muhimligini ko‘rsatadi.

Til bu ijtimoiy hodisa ekanligi hammamizga ma’lum. Inson o‘z ehtiyojlaridan, xohish-istaklaridan kelib chiqib, o‘z ona tilidan tashqari boshqa tillardan ham foydalanishi mumkin. Bilingvizm haqida fikr yuritar ekanmiz, “Bilingvizm o‘zi qanday hodisa?” kabi savollar tug‘ilishi tabiiy hol, albatta. Bilingvizm (lotinchadan olingan bo‘lib “bi” – ikki, “lingua” – til) ikki tillilik ma’nosini bildiradi. Umuman olganda bilingvizm, ya’ni ikki tillilik deganda, ikki tilda erkin fikrlay olish, ikkala tilni ham bir xil darajada bilish va bir xil egallaganlik tushuniladi. Yer yuzi aholisining deyarli yarmi bir kunda ikki tildan foydalanib muloqot qilishini bilasizmi? Ijtimoiy tarmoqlarda, turli xabar va yangiliklarda bunday insonlarga nisbatan “bilingvist” so‘zi ishlatilgan holatlarni uchratib turamiz va ikki tilni birday egallagan va birday qo‘llay oladigan, ikki tilda erkin fikrlay oladigan shaxslar bilingvistlar deyiladi degan fikrlar ham o‘rinlidir. Zullulsonayinlik faqatgina ikki tilni emas, muayyan bir adabiy til va uning dealektini mukammal bilish ham tushuniladi. Buning sababi bir adabiy tilning ham til bo‘lib shakllanishida ikki yoki undan ortiq xalq vakillarining jipslikda yashashi orqali hosil bo‘lganligidir. Aytilganlarga qo‘shimcha tarzida aytish mumkinki, bolaligidan ikki tilda bemalol muloqot qila oladigan kishilarni ham bilingvistlar deymiz. Shu sababdan biz bilingvizm (ikki tillilik)ni o‘rganilish davriga qarab ikki turga bo‘lamiz.

1. Sun’iy bilingvizm – hayotining ma’lum bir davridan boshlab ikkinchi til qo‘shiladi va ona tilidik o‘zlashtiriladi. Bularga asos sifatida hozirda chet tili sertifikatlarini ayta olamiz.

2. Tabiiy bilingvizmda esa erta yoshdan, bolalikning ilk bosqichlaridan ikki tilni birdek o‘zlashtirib borishadi.

Muhit ta’sirida shakllangan bilingvizmni ham biz ikki turga ajratishimiz mumkin:

1. Individual bilingvizm – oilaviy sharoit yoki shaxsiy xohish asosida ikki tillilik bilan ulg‘aygan kishilar. Bu guruhga mansub bo‘lgan bilingvistlar ota – onasi ikki xil tilda gaplashadigan oilada ulg‘ayish natejasida yoki bir millatga mansub, lekin ikkinchi bir chet tilini mukammal bilishi va farzandlarini ikki tilli qilib tarbiya olishi mumkin.



2. Ijtimoiy bilingvistlar – mamlakatdagi mavjud vaziyat yoki an’analar ta’sirida ikkita tilni bir xil o’zlashtirgan kishilar. Bunday vaziyatni esa mamlakatda birdan ortiq davlat tili mavjud yoki tarixan biror davlat mustamlakasi bo‘lgan jamiyatlarda shakillanadi. Bu holat asosan Yevropa davlatlarida, masalan, Shevetsariya 4 ta rasmiy tilga ega bo‘lgan davlat bo‘lib, insonlar oddiy turmush tarzida, kundalik hayotda kamida ikki tildan foydalanishadi.

Bilingvistlar va ikki tillilik yuzasidan ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazilgan bo‘lib, ularning har birida o‘ziga yarasha fikr va xulosalar ilgari surilgan. Avvallari kichikligidan ikki tilni birdek o‘rganib kelgan yosh bolalar ulg‘aygach uchinchi tilni o‘rganishga qiynaladi, deb hisoblagan. Ammo bugungi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ikki tillilik ta’limda sezilarli darajada ijobiy ta’sir o‘tkazgan.

1962 – yilda Peal va Lambert tomonidan olib borilgan tadqiqotda bilingvistlarning IQ darajasi va mantiqiy fikrlash darajasi bir tillik insonlarga qaraganda anchagiga yuqoriroqligi aniqlangan.

Ayni hozirgi paytda ham O‘zbekiston ta’lim tizimida ingliz, rus, koreys, xitoy tillari kabi chet tillarni o‘qitilayotganiga e’tibor qaratilayotgani bejiz emas.

2024 – yil yurtimizdagi yoshlarning 65 % dan ko‘proq qismi chet tillaridan birini boshlang‘ich darajada bilishi va bu yurtimizdagi yoshlarning shuncha qismi bilingvist bo‘lib yetishayotganini ko‘rsatadi. Iqtisodiy va kasbiy jihatdan nazar tashlaydigan bo‘lsak, dunyo miqyosida ikki tillilik mehnat bozorida katta ustunlik beradi. 2023-yilgi Linked In ma’lumotlariga ko‘ra, ingliz, ispan, arab va xitoy tillarini biladigan kadrlar global mehnat bozorida 15–30% yuqoriroq daromad oladi. AQShda esa ikki tilli xodimlarga bo‘lgan talab so‘nggi 10 yil ichida uch baravar oshganligi ma’lum bo‘ldi. O‘zbekistonda turizm, IT, xalqaro biznes, tarjima sohasi va diplomatiya kabi yo‘nalishlarda ikki tilni biladigan yoshlar uchun keng imkoniyatlar mavjud.

Xulosa qilib aytganda, XXI asr globallashuv, madaniyatlararo integratsiya jarayonlari kuchaygan bir davrda bilingvizm muhim ijtimoiy-lisoniy hodisa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bilingvizmning sun’iy va tabiiy, individual va ijtimoiy turlarga ajratilishi turli omillar — muhit, ta’lim, oilaviy sharoit va ijtimoiy ehtiyojlar bilan chambarchas bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Ilmiy tadqiqotlar, xususan, Peal va Lambert tomonidan olib borilgan izlanishlar bilingvist shaxslarning mantiqiy fikrlash va intellektual rivojlanish darajasi yuqori ekanini isbotlab, ikki tillilikning ta’lim jarayoniga ijobiy ta’sirini tasdiqlaydi. Bundan tashqari O‘zbekiston ta’lim tizimida chet tillarini o‘qitishga alohida e’tibor qaratilayotgani esa yosh avlodning raqobatbardosh, ochiq fikrlovchi va zamonaviy kadrlar sifatida shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Demak, bilingvizmni har tomonlama o‘rganish, uning ijtimoiy, pedagogik va iqtisodiy ahamiyatini ilmiy asosda tahlil qilish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib, jamiyat taraqqiyoti va shaxs kamolotida muhim o‘rin tutadi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.

1. Sh. Usmonova, N.Bekmuhammedova, G.Iskandarova. Sotsiolingvistika. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2014.
2. G'aniyev G. Sotsiolingvistika asoslari. - Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2005.
3. Бердиалиев Абдували. Ўз Ўзбек синхрон социолингвистикаси. Тошкентд – 2019.
4. <https://sinaps.uz/maqola/8353/>

